

YOSH FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmedov Jaloliddin Oribovich

Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti
Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti
ahmedov jaloliddin 09@gmail.com Tel:Q998914750883

Annotatsiya: maqolada yosh futbolchilarni jismoniy tayyorlashda o‘quv mashg‘ulot ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda bularni xisobga olish lozim, sport mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlardan foydalanish xamda jismoniy sifatlarini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiyalash, jismoniy sifatlar, jismoniy barkamollik, sport mashg‘ulotlarida.

KIRISH.Yosh futbolchilarni tayyorlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar va o‘smirlar sport jamoalaridagi o‘quv mashg‘ulot ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda bularni xisobga olish lozim. Futbol o‘yining turli- tuman texnikasini qisqa vaqt ichida egallab olish amalda mumkin emas. Faqat futbolchilarni 9 -10 yoshdan 17—18 yoshgacha o‘rgatish va mashq qildirishni to‘g‘ri oldindan rejalashtirish natijasidagina yukori texnika darajasiga ega bo‘lgan futbolchilar tayyorlash vazifasini hal etish mumkin. Yosh futbolchilar tayyorlashdan asosiy maqsad sport mahoratiga erishish uchun eng qulay bo‘lgan yoshda bolalarni asta-sekin mahoratli sportchi qilib yetishtirishdir. Biroq bolalar va o‘smirlar futbolining vazifasi razryadli futbolchilarni tayyorlash bilan tugallanmaydi Ular, ya’ni o‘smirlar futbolining vazifasi ancha keng bo‘lib, bolalar va o‘smirlar ning jismoniy va aqliy jihatdan garmonik rivojlanishlari, ularning sog‘ligini mustahkamlash va organizmning tashqi muhitning turli xil noqulay ta’sirlarida chidamliligini oshirish haqidagi masalaning hal etilishini ham ko‘zda tutali. Agar bolalarni o‘qitish va ularning takomillashish jarayoni sistemali ravishda, o‘zib borayotgan organizmning yosh xususiyatlarini xisobga olib Yosh futbolchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin: I bosqich dastlabki tayyorgarlik (8— 10yosh).

II bosqich boshlangich sport ixtisoslashuvi (11 — 12 yosh).

III bosqich — jiddiy mashg‘ulot (13—16 yosh).

IV' bosqich— sportchi bo‘lib takomillashish (17—18 yoshdan boshlanadi)

Tabiiyki, bosqichlar o‘rtasida aniq chegara yo‘q. Tayyorgarlikning *har* bir bosqichi o‘z ichiga aniq maqsad va vazifalarni oladi. bolalarni tarbiilash, o‘qitish va mashq qildirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida xar tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashga, sog‘likni mustahkamlash va garmonik rivojlanishga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishga, futbol o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslariga o‘rgatishga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtdagi vazifasi avvalo yosh futbolchilarning harakat funksiyalarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, va epchillik, shuningdek o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida, havoda va muskullarning zo‘r berish darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat o‘ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e’tibor berish kerak, chunki bolalik va o‘smirlik yoshida ana shu eng muhim ishlab chiqilgan, kelgusida va ilmiy asoslangan reja asosida amalga oshirilsa, bu jarayon samarali bo‘lishi mumkin. O‘quv mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda sportga tayyorlash vositalari rini 9—10

yoshdan 17—18 oshgacha. ya’ni yosh futbolchilarning kattalar hisobiga o‘tish paytigacha bo‘lgan butun davrga izchillik bilan, asosiy didaktik asoslarni hisobga olgan holda taqsimlash kerak. Jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir. Shuni qayd qilish kerakki, dastlabki tayyorgarlik va boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik, chaqqonlik bilan mustahkam bog‘liq ravishdla tarbiyalanadi, bu esa siljishning bir joydan ikkinchi joyga o‘tishni ratsional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi. 8-12 yoshlar mobaynida yugurishdagi maksimal tezlikning anchagina ortishi harakatlar tezligining tabiiy o‘sishi bilai bog‘liq. 12-14 yoshda esa tezlik asosan tezlik-kuch sifatlarinng va muskul kuchining o‘sib borishi tufayli ortadi. Shuning uchun tezkorlikni rivojlantirishda yugurish sur’ati va katta muskul kuchini talab etadigan harakatlar chastotasini maksimal ravishda oshirishga harakat qilish kerak. Bunda tabiiy harakatlarga ko‘proq o‘rin berish lozim. O‘yin, musobaqa shaklida bajariladigai sport o‘yinlari va harakatli o‘yinlar, mashqlar ham juda katta yordam ko‘rsatishi mumkin. O‘yin mashqlarini bajarish yosh futbolchilarni g‘alabga erishish uchun maksimal kuch sarflashga majbur etadi. O‘yin materiali mashg‘ulotdagi umumiy vaqtning 50% chasini egallashi kerak. Har bir mashq qisqa vaqt ichida (10 -15 sek) bir necha seriyali usulda bajariladi, dam olish interval 10—15 m. bo‘ladi. Maksimal tezlik bilan qayta yugurish muhim ahamiyatga ega, bu 20 m. gacha masofa da estafeta usulida bajariladi. Mashg‘ulotlarga estafetalardan tashqari 10—15 m ga yugurish bo‘yicha nazorat mashqlarni kiritish ham tavsiya etiladi. Murakkab harakat reaksiyasini va harakatlar chastotasini rivojlantirish uchun turli sport holatidan yuguriladigan telkorlik mashqlaridan keng foydalanish kerak. Bu mashqlar turli xil ko‘ruv signallariga binoan, yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib bajariladi. Bu esa o‘yin jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarni modellashtirib, signallarning har biriga javob harakatlari bilan reaksiya ko‘rsatish imkonini beradi. Boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi bosqichida keng ko‘lamdagi o‘yinlar, o‘yin mashqlarini qo‘llashdan tashqari, asosiy jismoniy sifatlarni, avvalo tezkorlik va kuchni rivojlantiruvchi maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslaridan foydalanish mumkin. Bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning mustahkam bazasini yaratish uchun qulay shart sharoit yaratadi. Ko‘proq tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan komplekslarni darsning asosiy qismi boshlarida qo‘llanish kerak, shunday so‘ng bu sifatni takomillshtirishga yordam beruvchi o‘yinlarni qo‘llanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Futbol A.Nurimov Toshkent 2000 y.
2. Sport trenirovkasining nazariy va uslubiy asoslari. Toshkent 1993 y.
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. Qo‘qon 1994 y.
4. Futbol kuvonchim, dardim, faxrim A.Imomxo‘jayev Toshkent 1996 y.